

BANK TIZIMI VA PUL-KREDIT SIYOSATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li

Ilmiy rahbar: i.f.f.d.

Baxtiyorov Otabek

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Bank ishi fakulteti talabasi.

otabek.baxtiyarov@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14331260>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bank tizimi va pul-kredit siyosatining o'zaro bog'liqligi, zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida bank tizimining barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatining roli, raqamli transformatsiya sharoitida markaziy banklarning vazifalarining o'zgarishi va moliyaviy innovatsiyalarning ta'siri o'rganilgan.

Kalit so'zlar: bank tizimi, pul-kredit siyosati, monetar boshqaruv, moliyaviy barqarorlik, raqamli transformatsiya, markaziy bank.

БАНКОВСКАЯ СИСТЕМА И ДЕНЕЖНО-КРЕДИТНАЯ ПОЛИТИКА: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь банковской системы и денежно-кредитной политики, современные тенденции и перспективы развития. В результате исследования изучена роль денежно-кредитной политики в обеспечении устойчивости банковской системы, изменение функций центральных банков в условиях цифровой трансформации, влияние финансовых инноваций.

Ключевые слова: банковская система, денежно-кредитная политика, денежно-кредитное управление, финансовая стабильность, цифровая трансформация, Центральный банк.

BANKING SYSTEM AND MONETARY POLICY: MODERN APPROACHES AND DEVELOPMENT TRENDS

Abstract. This article analyzes the relationship of the banking system and monetary policy, modern trends and prospects for development. As a result of the study, the role of monetary policy in ensuring the stability of the banking system, the change in the tasks of central banks in the context of digital transformation and the impact of financial innovation are studied.

Keywords: banking system, monetary policy, monetary management, financial stability, digital transformation, central bank.

KIRISH

Bank tizimi va pul-kredit siyosati O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, mamlakat moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda O'zbekistonda bank tizimini isloh qilish va pul-kredit siyosatini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [1]. Bu islohotlar bank tizimining institutsional rivojlanishini ta'minlash, raqobat muhitini shakllantirish va bank xizmatlarining sifatini oshirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan yuritilayotgan pul-kredit siyosati inflatsiyani jilovlash, milliy valyuta barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi [2]. Ayniqsa, inflatsiyani targetlash rejimiga o'tish va monetar siyosat instrumentlarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bank tizimini raqamlashtirish va moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan. COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy bank xizmatlariga bo'lgan talabning keskin oshishi raqamli transformatsiya jarayonlarini yanada tezlashtirdi. Bank tizimida fintech kompaniyalar va raqamli banklar paydo bo'lishi raqobat muhitini shakllantirish va bank xizmatlarining sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va sintez usullaridan foydalanildi. Bank tizimi va pul-kredit siyosatiga oid milliy va xalqaro ilmiy adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlar o'rganildi.

Rahimov va Nurmatov [3] O'zbekiston bank tizimining zamonaviy holatini tahlil qilib, raqamli transformatsiya sharoitida bank xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab bergan.

Karimova [4] pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish va inflatsiyani targetlash rejimini takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan.

Xorijiy olimlardan Williams [5] markaziy banklarning raqamli valyutalarni joriy etish tajribasini o'rganib, bu jarayonning afzalliklari va risklarini baholagan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bank tizimi va pul-kredit siyosatining zamonaviy holatini tahlil qilish natijasida bir qator muhim tendensiyalar va xususiyatlar aniqlandi. O'zbekistonda bank tizimini transformatsiya qilish

jarayonlari jadal sur'atlarda amalga oshirilmoqda. Davlat ishtirokidagi banklarni xususiylashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bank tizimida davlat ulushining yuqoriligi raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani sababli, xususiylashtirish dasturi doirasida yirik banklar aksiyalari strategik investorlarga sotilmoqda [6]. Bu jarayon bank xizmatlarining sifatini oshirish va boshqaruv samaradorligini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan inflatsiyani targetlash rejimining joriy etilishi pul-kredit siyosatining samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Asosiy stavkadan faol foydalanish orqali monetar sharoitlar tartibga solinmoqda. Markaziy bank tomonidan yuritilayotgan qat'iy pul-kredit siyosati natijasida inflatsiya darajasi pasayish tendensiyasiga ega bo'lmoqda [7]. Bu esa iqtisodiyotda narxlar barqarorligini ta'minlash va investitsion muhitni yaxshilashga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bank tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi natijasida masofaviy bank xizmatlarining ulushi sezilarli darajada oshdi. Mobil banking, internet banking va boshqa raqamli xizmatlarning rivojlanishi bank xizmatlarining qulayligi va ommabopligini oshirmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi uch yilda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 3 barobarga oshgan [4]. Bu tendensiya ayniqsa COVID-19 pandemiyasi davrida yanada jadallashdi.

Bank nazorati va prudensial tartibga solish mexanizmlari xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda. Basel III talablarining bosqichma-bosqich joriy etilishi bank tizimining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bank kapitali yetarliligiga qo'yilayotgan talablarning kuchaytirilishi, likvidlik ko'rsatkichlarining joriy etilishi va risk-menejmenti tizimining takomillashtirilishi bank tizimining moliyaviy barqarorligini oshirmoqda [8].

Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosatining yana bir muhim jihati - bu kommunikatsiya siyosatining takomillashtirilishidir. Monetar siyosat bo'yicha qarorlarning shaffof va tushunarli tarzda e'lon qilinishi, prognozlarning muntazam yangilanib borilishi va jamoatchilik bilan faol muloqotning yo'lga qo'yilishi moliyaviy bozor ishtirokchilarining Markaziy bank siyosatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlamoqda.

Bank tizimida raqobat muhitini shakllantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ham o'z natijalarini bermoqda. Yangi bank litsenziyalarining berilishi, xorijiy banklarning O'zbekiston bozoriga kirib kelishi va fintech kompaniyalarning rivojlanishi bank xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytirishga olib kelmoqda. Bu esa o'z navbatida bank xizmatlarining sifatini oshirish va narxlarning optimallashtirish uchun rag'bat yaratmoqda [3].

Shu bilan birga, bank tizimida hal etilishi lozim bo'lgan bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, ayrim banklarda muammoli kreditlar ulushining yuqoriligi, risk-menejmenti tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, bank xodimlarining malakasini oshirish zarurati kabi masalalar

dolzarbligicha qolmoqda. Bu muammolarni hal etish uchun kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va tegishli me'yoriy-huquqiy baza takomillashtirilmoqda.

O'zbekiston bank tizimidagi transformatsiya jarayonlarini tahlil qilishda 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra tijorat banklarining asosiy ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Bank tizimining umumiy aktivlari 652,157 mlrd so'mni tashkil etib, shundan 68 foizi (441,777 mlrd so'm) davlat ulushi mavjud banklarga to'g'ri kelmoqda. Bu ko'rsatkich bank tizimida davlat ishtirokining hamon yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Jadval 1.

O'zbekiston bank tizimining yetakchi banklari ko'rsatkichlari (2024-yil 1-yanvar holatiga)

Bank nomi	Aktivlar (mlrd so'm)	Bozor ulushi (%)	Kreditlar (mlrd so'm)	Depozitlar (mlrd so'm)
O'zmilliybank	127,503	19.6	99,423	32,920
O'zsanoatqurilishbank	74,634	11.4	57,124	13,799
Agrobank	66,700	10.2	54,483	15,389
Asaka bank	58,014	8.9	39,213	15,485
Ipoteka-bank	47,638	7.3	37,264	17,773

Jadval 2.

Bank tizimining tarkibiy ko'rsatkichlari (2024-yil 1-yanvar holatiga)

Ko'rsatkichlar	Davlat ulushli banklar	Boshqa banklar	Jami
Aktivlar ulushi	68%	32%	100%
Kreditlar ulushi	71%	29%	100%
Kapital ulushi	65%	35%	100%
Depozitlar ulushi	51%	49%	100%

Tahlil natijalariga ko'ra, bank tizimida depozitlar hajmi 241,687 mlrd so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkichda davlat ulushli va xususiy banklar o'rtasidagi farq nisbatan kam - 51% va 49% ni tashkil etmoqda. Bu aholi va biznes sub'ektlarining xususiy banklarga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Kredit portfeli tarkibida davlat ulushli banklar 71 foizlik ulushga ega bo'lib, bu holat davlat dasturlari va yirik loyihalarning asosan davlat banklari orqali moliyalashtirilishi bilan bog'liq.

Biroq, xususiyl banklar segmentida ham kredit operatsiyalari faol o'sib bormoqda.

Bank kapitalining taqsimlanishida ham davlat ulushli banklar yetakchi o'rinni (65%) egallab turibdi. Bu esa bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda davlat banklarining roli hamon yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Raqamli transformatsiya sohasida yangi banklar - Uzum bank, Smart bank, AVO bank kabi raqamli banklar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lsada, ularning bozordagi ulushi hozircha unchalik katta emas. Biroq, ushbu banklar zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlarni joriy etish orqali bank xizmatlari bozorida o'z o'rnini topishga harakat qilmoqda.

№	БАНК	Умумий рейтинг	Рейтинг узгариши	Молиявий воситачилик бўйича рейтинг	Молиявий оммабоплик бўйича рейтинг	Капитал етарлилиги бўйича рейтинг	Активлар сифати бўйича рейтинг	Бoshqaruv самарадорлиги бўйича рейтинг	Даромад олиш салоҳияти бўйича рейтинг	Ликвидлилик бўйича рейтинг
1	Давр банк	1	0	8	1	11	1	3	4	12
2	Зираат банк	2	0	6	5	8	6	6	5	5
3	Универсал банк	3	0	1	6	9	4	5	6	6
4	ТВС банк	4	0	1	3	6	8	10	3	9
5	Анор банк	5	0	1	2	12	2	8	12	11
6	Тенге банк	6	0	9	4	5	7	9	7	7
7	Октобанк	7	3	1	12	1	11	4	11	1
8	Пойтахт банк	8	0	11	9	1	3	7	2	1
9	Мадад инвест банк	9	-2	10	8	1	12	1	1	8
10	Гарант банк	10	1	7	7	10	10	12	10	10
11	ЎзКДБ банк	11	-2	11	10	7	5	2	8	1

1-rasm. 2023-yilning to'rtinchi choragi uchun Banklar faollik indeksi

O'zbekiston bank tizimidagi transformatsiya jarayonlarining muhim ko'rsatkichlaridan biri - bu banklarning reytingi hisoblanadi. Taqdim etilgan jadval asosida banklarning turli yo'nalishlardagi faoliyati bo'yicha reytingi tahlilini ko'rib chiqamiz.

Davr bank reytingda umumiy reytingi bo'yicha 1-o'rinni egallab turibdi. Bank ayniqsa moliyaviy rentabellik (8-o'rin) va likvidlilik bo'yicha reytingi (12-o'rin) bo'yicha yaxshi ko'rsatkichlarga ega. Bu bank moliyaviy barqarorlik va samarali faoliyat ko'rsatayotganini bildiradi.

Ziraat Bank ikkinchi o'rinni egallagan bo'lib, barqaror ko'rsatkichlarni namoyish etmoqda.

Bank moliyaviy rentabellik bo'yicha 6-o'rin, kapitallashuv darajasi bo'yicha 8-o'rin va aktivlar sifati bo'yicha 6-o'rinni egallagan. Bu bank konservativ siyosat yuritayotgani va risklarni oqilona boshqarayotganini ko'rsatadi.

Universal bank umumiy reytingda 3-o'rinni egallagan. Bank moliyaviy rentabellik bo'yicha pastroq ko'rsatkichga (1-o'rin) ega bo'lsa-da, boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha o'rtacha pozitsiyani saqlab turibdi. Bu bank o'z faoliyatini diversifikatsiya qilish va yangi yo'nalishlarni o'zlashtirish bosqichida ekanligini ko'rsatadi [9].

TBC Bank 4-o'rinda bo'lib, aktivlar sifati (4-o'rin) va likvidlilik (9-o'rin) bo'yicha yaxshi ko'rsatkichlarga ega. Bank Gruziyaning yetakchi bank guruhiga tegishli bo'lib, xalqaro tajriba va standartlarni mahalliy bozorga tatbiq etmoqda.

Anor bank 5-o'rinni egallagan bo'lib, bu bank raqamli texnologiyalarga asoslangan "neobank" sifatida faoliyat yuritmoqda. Biznes samaradorligi (8-o'rin) va depozitlar bo'yicha o'sish sur'ati (12-o'rin) bo'yicha yaxshi natijalarni ko'rsatmoqda.

Tenge bank 6-o'rinda bo'lib, Qozog'iston "Xalyk Bank" guruhiga tegishli. Bank moliyaviy rentabellik (9-o'rin) va aktivlar sifati (7-o'rin) bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlarga ega.

OktoBank 7-o'rinni egallagan va asosan chakana bank xizmatlari segmentida faoliyat yuritmoqda. Bank moliyaviy rentabellik bo'yicha past ko'rsatkichga (1-o'rin) ega bo'lsa-da, depozitlar o'sishi bo'yicha yuqori natija (11-o'rin) ko'rsatgan.

Poytaxt bank 8-o'rinda bo'lib, yangi tashkil etilgan banklar qatoriga kiradi. Bank hozircha moliyaviy rentabellik (11-o'rin) va biznes samaradorligi (7-o'rin) bo'yicha pastroq ko'rsatkichlarga ega.

Madad invest bank 9-o'rinni egallagan bo'lib, investitsiya bank xizmatlariga ixtisoslashgan.

Bank moliyaviy rentabellik (10-o'rin) va kapitallashuv darajasi bo'yicha (8-o'rin) o'rtacha ko'rsatkichlarga ega.

Garant bank 10-o'rinda bo'lib, kichik va o'rta biznesni kreditlashga yo'naltirilgan. Bank barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'rtacha pozitsiyalarni egallab turibdi.

O'zKDB bank 11-o'rinni egallagan bo'lib, davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilgan bank hisoblanadi. Bank moliyaviy rentabellik (11-o'rin) va kapitallashuv darajasi (7-o'rin) bo'yicha pastroq ko'rsatkichlarga ega.

Ushbu reytingdan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston bank tizimida raqobat muhiti shakllanmoqda. Yangi banklar, shu jumladan xorijiy banklar faol kirib kelishi natijasida bank xizmatlari diversifikatsiyalashmoqda va sifati oshmoqda. Shu bilan birga, bank tizimida quyidagi tendensiyalarni kuzatish mumkin:

1. Raqamli transformatsiya - yangi banklar asosan raqamli texnologiyalarga asoslangan biznes modellarni joriy etmoqda.
2. Xalqaro integratsiya - xorijiy bank guruhlar O'zbekiston bozoriga kirib kelishi faollashmoqda.

3. Ixtisoslashuv - banklar ma'lum segment yoki xizmat turlariga ixtisoslashish orqali o'z raqobat ustunliklarini shakllantirmoqda.

4. Risk-menejmenti - banklar xalqaro standartlarga muvofiq risk-boshqaruvi tizimlarini joriy etmoqda.

Bank tizimidagi bunday o'zgarishlar moliyaviy xizmatlar bozorining rivojlanishiga va iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda.

XULOSA

Bank tizimi va pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, bank tizimida davlat ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirish va raqobat muhitini shakllantirish zarur. 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra bank aktivlarining 68 foizi davlat ulushi mavjud banklarga to'g'ri kelishi bank tizimida davlat dominantligining yuqoriligini ko'rsatadi. Bank tizimini xususiylashtirish va transformatsiya qilish jarayonlarini jadallashtirish orqali raqobat muhitini yaxshilash lozim.

Ikkinchidan, bank tizimining raqamli transformatsiyasini yanada chuqurlashtirish zarur. Buning uchun bank infratuzilmasini modernizatsiya qilish, zamonaviy bank texnologiyalarini joriy etish va bank xodimlarining raqamli kompetensiyalarini oshirish talab etiladi. Raqamli banklar va fintech kompaniyalarning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish uchun monetar instrumentlardan foydalanish amaliyotini takomillashtirish lozim. Inflatsiyani targetlash rejimining samaradorligini oshirish, kommunikatsiya siyosatini kuchaytirish va moliya bozorlarining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash muhim vazifalar hisoblanadi.

Yuqoridagi vazifalarning samarali amalga oshirilishi O'zbekiston bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash va mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Abdullaev. A. (2023). O'zbekiston bank tizimi: rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari. Moliya va bank ishi jurnali, 15(2), 45-58.
2. Rahimov.M., Nurmatov.N. (2023). Bank tizimini raqamlashtirish: muammolar va yechimlar. Iqtisodiyot va moliya, 8(3), 112-125.
3. Karimova.S. (2023). Pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish masalalari. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 4, 67-82.

4. Tursunov.B. (2023). O'zbekiston bank tizimini modernizatsiya qilish istiqbollari. Bank axborotnomasi, 6, 23-35.
5. Williams. J. (2023). Monetary Policy in the Digital Age: Challenges and Opportunities. Journal of Banking & Finance, 45(4), 112-128.
6. Yusupov. R. (2023). Bank nazorati tizimini takomillashtirish yo'nalishlari. Biznes-ekspert jurnali, 5, 89-102.
7. Alimov. K. (2023). Markaziy bankning pul-kredit siyosati: yangi yondashuvlar. Moliyachi, 7, 45-58.
8. Chen. L., & Smith, R. (2023). Banking System Stability and Macroprudential Policy. International Journal of Central Banking, 19(2), 45-67.
9. Banklar reytingi: Kapitalbank yetakchilikni saqlab qolmoqda, 24 yanvar 2024, <https://www.spot.uz/oz/2024/01/24/rating-of-banks/>